

**TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.T.03.02 RAQAMLI ILMIY
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

YUNUSOVA NILUFAR ABDUSAMI QIZI

**SANOAT ISSIQLIK ALMASHINISH QURILMALARI UCHUN SUV
TOZALASH QURILMASINI TAKOMILLASHTIRISH**

**02.00.16 – Kimyo texnologiyasi va oziq-ovqat ishlab chiqarish jarayonlari va apparatlari
(texnika fanlari)**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent-2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Yunusova Nilufar Abdusami qizi

Sanoat issiqlik almashinish qurilmalari uchun suv tozalash
qurilmasini takomillashtirish.....3

Юнусова Нилуфар Абдусами кизи

Совершенствование установки водоподготовки для
промышленных теплообменных аппаратов.....21

Yunusova Nilufar Abdusami qizi

Improvement of water treatment plant for industrial
heat exchangers.....39

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works.....42

**TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.T.03.02 RAQAMLI ILMIY
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

YUNUSOVA NILUFAR ABDUSAMI QIZI

**SANOAT ISSIQLIK ALMASHINISH QURILMALARI UCHUN SUV
TOZALASH QURILMASINI TAKOMILLASHTIRISH**

**02.00.16 – Kimyo texnologiyasi va oziq-ovqat ishlab chiqarish jarayonlari va apparatlari
(texnika fanlari)**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent-2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PhD/T1632 raqam bilan ro‘yhatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tdtu.uz) hamda «Ziyonet» axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Muxitdinov Djalolitdin Paxritdinovich**
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Nurmuxamedov Xabibullo Sa’dullayevich**
texnika fanlari doktori, professor

Samandarov Doston Ishmuxammad o‘g‘li
texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot: **Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat texnika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi Dsc.03/30.12.2019.T.03.02 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil «__»_____soat __dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100095, Toshkent shahri, Universitet ko‘chasi, 2. Tel.: (99871) 246-46-00; faks: (99871) 227-10-32; e-mail: tstu_info@tdtu.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat texnika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (__raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100095, Toshkent shahri, Universitet ko‘chasi, 2. Tel.: (99871)207-14-70).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «__»_____kuni tarqatildi.
(2024 yil «__»_____dagi __raqamli reestr bayonnomasi).

N.R. Yusupbekov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
t.f.d., professor, O‘zR FA akademigi

U.F. Mamirov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash ilmiy kotibi,
t.f.d., professor

Sh.M. Gulyamov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda sanoat korxonalaridagi aylanma suv ta'minoti tizimida ishlatiladigan suvni yumshatish va tuzsizlantirish bilan bog'liq bo'lgan ilmiy ishlanmalarga katta e'tibor qaratilmoqda. Aylanma suv ta'minoti tizimida qattiqligi yuqori bo'lgan suvning bug'lanishi va uni doimiy ravishda to'ldirish quvurlar va uskunalardan olib tashlash qiyin bo'lgan qattiq karbonatli qatlamlarning shakllanishiga alohida e'tibor berishni taqozo etadi. Bunday qatlamlar yuqori mexanik xususiyatlarga va yetarlicha past issiqlik o'tkazuvchanlikka ega bo'lib, bu esa issiqlik energiyasi ortiqcha sarfining va issiqlik texnikasi qurilmalarini qayta ta'mirlash ishlariga sarflanadigan xarajatlarning kamaytirilishi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Jahonda hozirgi kunda texnologik issiqlik almashinuv uskunalarining samarasiz ishlashi natijasida kelib chiqadigan yoqilg'i va energiyaning asossiz ortiqcha sarflanishi muammosi bilan bog'liq turli sohalarda issiqlik almashinuvining samarali usullari va texnologiyalarini ishlab chiqish, samaradorligi yuqori bo'lgan materiallardan foydalanish, zamonaviy kompyuter modellashtirish usullaridan foydalanishga qaratilgan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Shu munosabat bilan energiyani asossiz ortiqcha iste'mol qilish ishlab chiqarish va iste'mol xarajatlarining oshishiga olib kelayotganligi sababli korxonalar va umuman davlat byudjetlariga salbiy ta'sir qilishi natijasida sanoatning turli sohalarida, jumladan, energetika, kimyo va boshqalarda duch keladigan muhim va dolzarb muammodir.

Respublikamizda sanoat korxonalaridagi aylanma suv ta'minoti tizimida issiqlik almashinuv jarayoniga to'sqinlik qiladigan va issiqlik almashinuv uskunalarining muddatidan oldin ishdan chiqishiga olib keladigan cho'kindi qatlamlarning hosil bo'lishi bilan bevosita bog'liq bo'lgan issiqlik texnikasi qurilmalarining xizmat ko'rsatish muddatini uzaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida, jumladan, "Sanoat tarmoqlarida yo'qotishlarni kamaytirish va resurslarni ishlatish samaradorligini oshirish ..., zamonaviy energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish, ... energiya samaradorligini oshirish bo'yicha loyihalarni moliyalashtirish"¹ vazifalari belgilab berilgan. Mazkur vazifalarni amalga oshirish, jumladan, issiqlik almashinuvi uskunalarining samaradorligini oshirish uchun suvni yumshatish va tuzsizlantirish qurilmasini yaratish, samaradorligini oshirish va amaliyotga joriy etish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-apreldagi PF-3682-sonli «Innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va loyihalarni amaliyotga tatbiq etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2019-yil 3-apreldagi PF-4265-sonli «Kimyo sanoatini yanada isloh qilish va investitsion jozibadorlikni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonlarida, 2017-yil 7-fevraldagi PQ-4947-sonli «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni

bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi va 2022-yil 28-yanvardagi PQ-60-sonli «Yangi O'zbekistonning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan rivojlanish strategiyasi to'g'risida»gi qarorida hamda ushbu sohadagi boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining II. «Energetika, energiya va resurslarni tejash» ustuvor yo'nalishlariga muvofiq amalga oshirildi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Issiqlik almashinuv qurilmalarining ichki yuzasida cho'kindi qatlamlar hosil bo'lishining oldini olish maqsadida suvni yumshatish texnologiyasini yangilash va takomillashtirish bilan bog'liq bo'lgan masalalarni hal qilishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar dunyoning ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida, shu jumladan Stanford University (AQSH), Cranfield University (Buyuk Britaniya), Nanyang Technological University (Singapur), Delft university of technology (Niderlandiya), Engineering Institute of technology (Avstraliya), N.E.Bauman nomidagi Moskva Davlat texnika universiteti (Rossiya), Toshkent davlat texnika universiteti va Toshkent kimyo-texnologiya institutida (O'zbekiston) olib borilmoqda.

Ta'kidlash joizki, butun dunyo olimlari issiqlik muhandislik tizimlarida ishlatiladigan suvni yumshatish jarayonlarining samarali texnologiyalari va apparat dizaynini ishlab chiqish bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqotlar o'tkazdilar. Suvni yumshatish muammosi bilan quyidagi xorijiy olimlar shug'ullanishgan: Obertas I.A.², Mixaylov V.G.³, Apell J.N.⁴, Boyer T.H.⁴, Zhao G.⁵, Wu X.⁵, Tan X.⁵, Wang X.⁵ va boshqalar. Mamlakatimiz olimlaridan Muxiddinov D.N.⁶, Yusupbekov N.R.⁷, Muxitdinov D.P.⁷, Turabdjano'v S.M.⁸, Raximova L.S.⁸, Yusupaliyev R.M.⁹lar isitish tizimlarida va boshqa texnologik qurilmalarda cho'kindi qatlamlar hosil bo'lishining asosiy manbai bo'lgan suvning qattiqligini kamaytirishning turli usullarini qo'llashga asoslangan ilmiy tadqiqotlar natijalarini ishlab chiqarishga joriy etdilar.

Biroq, erishilgan muhim yutuqlarga qaramay, ion almashinuviga asoslangan suvni yumshatish, ya'ni kalsiy va magniy ionlari natriy ionlari bilan almashganda

² Obertas I.A.: Modeling of water softening processes on cation exchangers. Reports of the National Academy of Sciences of Ukraine 10/2007, 134–138.

³ Рябчиков Б.Е. Современные методы подготовки воды для промышленного и бытового использования: производственно-практическое издание. М.: ДеЛи принт, 2004. 152 с.

⁴ Apell J.N., Boyer T.H.: Combined ion exchange treatment for removal of dissolved organic matter and hardness. Water Res. 44, 2010, 2419–2430.

⁵ Zhao G., Wu X., Tan X., Wang X. Sorption of heavy metal ion from aqueous solutions: A review. Open Colloid Sci. J. 2011. N 4. P. 19-31.

⁶ Mukhitdinov D.N. New methods for obtaining quality drinking water in a water treatment plant // Chemical Technology, Control and Management, vol. 2020, issue 3, Art. 2, -PP: 10-14.

⁷ Yusupbekov N.R., Muxitdinov D.P. Texnologik jarayonlarni modellashtirish va optimallashtirish asoslari. – Toshkent: “Sano-standart”, 2019. 480 bet

⁸ Turabjanov S.M., Rakhimova L.S. Synthesis of phosphoric acid cationexchange polymer of polycondensation type // Austrian Journal of Technical and Natural Sciences. 2016. №1-2, -PP: 111-113.

⁹ Yusupaliyev R.M. Issiqlik elektr stansiyalarida suv tayyorlash texnologiyasi va kimyoviy nazorat. – Toshkent: “Sano-standart”, 2013. 288 bet.

suvning qattiqligi pasayishi va cho‘kindi qatlamlar hosil bo‘lishining oldini oladigan qurilmalar va texnologiyalarni ishlab chiqish yetarli darajada o‘rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat texnika universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining OT-F7-88-«Istiqbolli energiya va resurslarni tejaydigan issiqlik va massa uzatish jarayonlarining amaliy asoslarini takomillashtirish» (2017-2020 yy.) mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi sanoat korxonalarining aylanma suv ta’minoti tizimida issiqlik almashinuv jarayonida ishlatiladigan suvni yumshatish jarayonini matematik modellashtirish va qurilmani takomillashtirish.

Tadqiqotning vazifalari:

aylanma suv ta’minoti tizimining hozirgi holatini va ularda olib borilayotgan suvni yumshatish va tuzsizlantirish jarayonlarini tahlil qilish;

aylanma suv ta’minotida issiqlik va massa uzatish jarayonlarining samaradorligini oshirish bo‘yicha tajribalar o‘tkazish uchun tajriba qurilmasini loyihalash va ishlab chiqish;

ion almashinuvining kinetik va muvozanat shakllarini hisobga olgan holda ikki qismli natriy-kationit filtrida suvni yumshatish bosqichining matematik modelini ishlab chiqish;

suvni yumshatish va tuzsizlantirishning asosiy texnologik xususiyatlarini hisoblash metodologiyasini ishlab chiqish;

suvni yumshatish va tuzsizlantirish issiqlik energiyasining sarfini, to‘xtab turish vaqtini va texnik xarajatlarni kamaytirishga ta’sirini o‘rganish.

Tadqiqotning obyekti sifatida suvni tuzsizlantirish va yumshatish qurilmasi olingan.

Tadqiqotning predmeti suv oqimining bir xil taqsimlanishini ta'minlash va ion almashinadigan smoladan eng samarali foydalanish uchun qurilma elementlarini loyihalash va joylashtirishdir.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot maqsadini amalga oshirish uchun suvni yumshatish jarayonining fizik-matematik modeli, matematik modellashtirish va algoritmlash usullari, gidrodinamik va issiqlik almashinish jarayonlarini o‘rganishning hisobiy va tajribaviy usullari, shuningdek olingan natijalarni matematik qayta ishlash usullari qo‘llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ikki qismli natriy-kationit filtridagi suvni yumshatish jarayonidagi ion almashinuvining kinetik va muvozanat qonuniyatlarini hamda ionit qatlami orqali suyuqlik harakatining gidrodinamik xususiyatlarini hisobga olish imkonini beradigan matematik model ishlab chiqilgan;

ion almashinuvi, adsorbsiya, diffuziya va filtrlash jarayonlarini tavsiflovchi kimyo, fizika va gidrodinamika qonunlariga asoslanib, suvni yumshatish moslamasida “regeneratsiya” jarayonini hisoblash imkonini beruvchi model ishlab chiqilgan;

cheklangan elementlar usuli - tizimni diskret elementlarga ajratuvchi, bir jinsli va murakkab geometrik shakllarni modellashtirish imkonini beruvchi PDE Toolbox-ga asoslanib, matematik tavsiflash uchun suvni yumshatish moslamasida to'liq "sorbsiya-regeneratsiya" sikli tenglamalar tizimini yechishni ta'minlaydigan algoritim ishlab chiqilgan;

suvni yumshatishda vaqt bo'yicha Ca va Mg tuzlari konsentratsiyasining o'zgarish dinamikasini hamda regeneratsiya jarayonining vaqtini aniqlash imkonini beradigan qurilmaning konstruksiyasi loyihalashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

suvni yumshatish qurilmasi ishlab chiqilgan va tayyorlangan, undan foydalanishning maqsadga muvofiqligi va istiqbollari tavsiflangan;

ikki qismlı natriy-kationit filtrida suvni yumshatish va ionitni qayta tiklash bosqichlari modelining tenglamalari sistemasini ikki usul bilan yechish uchun algoritmlar ishlab chiqilgan;

cho'kindi qatlamlarning hosil bo'lish jarayoni va tarkibi tabiiy suvning kimyoviy tarkibi bilan o'zaro bog'liqligi tajriba asosida o'rganilgan;

issiqlik qurilmalari devorlaridagi qatlamlarning mineral tarkibi aniqlangan va suvni yumshatishning ion almashinuv usuliga asoslangan qatlamlar hosil bo'lishining oldini olish usuli taklif qilingan;

issiqlik almashinuv qurilmalarida cho'kindi qatlamlarning hosil bo'lish tezligi suvning qattiqligi, harorati, suvning pH qiymati, karbonat anhidrid miqdori, bosim va oqim turbulentsligiga bog'liqligi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ilmiy usullarning umume'tirof etilgan tamoyillariga muvofiqligi, matematik modellashtirishning nazariy jihatdan ishonchli usullaridan foydalanilganligi, tahlil usullarini tanlashning to'g'riligi, olingan natijalarning mantiqiy ketma-ketligi va nazariy va eksperimental tadqiqot natijalari izchilligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ikki qismlı natriy kationit filtrida suvni yumshatish bosqichining matematik modeli ishlab chiqilganligi, ion almashinuvining kinetik va muvozanat qonuniyatlarini shuningdek, suyuqlikning ionit qatlami orqali kirib borishining gidrodinamik xususiyatlarini hisobga olgan holda ion almashinuv jarayonining matematik modeli ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ikki qismlı ion almashinuv filtri suvni sifatli yumshatishda, aylanma suv ta'minoti tizimidagi uskunalarning samaradorligi va ishonchliligini oshirish imkonini beruvchi ishlab chiqilgan suvni yumshatish qurilmasi va undan foydalanishning maqsadga muvofiqligi va istiqbollarini tavsiflanishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Sanoat korxonalarining aylanma suv ta'minoti tizimida issiqlik almashinuv jarayonida ishlatiladigan suvni yumshatish qurilmasini takomillashtirish bo'yicha olingan natijalar asosida:

suvni yumshatish qurilmasida "sorbsiya-regeneratsiya" to'liq siklini matematik tavsiflash uchun tenglamalar tizimini yechishni ta'minlovchi algoritim Navoiy shahri "Elektrkimyozavod" QK AJda joriy qilingan (O'zbekiston

Respublikasi “Elektrkimyozavod” QK AJning 2024 yil 5 yanvardagi №014-son ma’lumotnomasi). Natijada, noxiziqli differensial tenglamalar tizimini yechish va natijalarni baholashning aniqligini oshirish orqali issiqlik almashinuv qurilmalarida cho’kindi qatlamlarning hosil bo’lish tezligi va suvning sifat ko’rsatkichlarini aniqlash imkonini bergan.

suvni yumshatish moslamasida “regeneratsiya” jarayonini hisoblash imkonini beruvchi model, suvni yumshatish uchun ko’p funksiyali qurilma Navoiy “Elektrkimyozavod” QK AJda suvni yumshatish uchun ikki kamerali ion almashinuv filtrining sinov qurilmasiga joriy qilindi (O’zbekiston Respublikasi “Elektrkimyozavod” QK AJning 2024-yil 5-yanvardagi 014-son ma’lumotnomasi). Natijada, regeneratsiya eritmasi va suv hajmining sarfini kamaytirish, suvni sifatli yumshatish, aylanma suv ta’minoti tizimidagi uskunalarining samaradorligi va ishonchligini oshirish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilindi.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo’yicha jami 12 ta ilmiy ishlar e’lon qilingan. Shulardan 6 ta ilmiy maqola O’zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi ro’yxatidagi ilmiy jurnallarda nashr etilgan hamda O’zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi tomonidan EHM uchun dasturiy mahsulotni rasman ro’yxatdan o’tkazganligi to’g’risida guvohnoma olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 118 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, maqsad va vazifalar tavsiflangan, tadqiqot obyekti va predmeti aniqlangan, tadqiqotning O’zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo’nalishlariga mosligi ko’rsatilgan, ilmiy yangiligi aniqlangan va tadqiqotning amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchligi tasdiqlangan, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo’yicha tadqiqot natijalarining bajarilishi to’g’risida ma’lumot berilgan.

Dissertatsiyaning «**Ionit qatlamli qurilmalarda suvni yumshatish muammolarining hozirgi holatini tahlil qilish**» deb nomlangan **birinchi** bobida, murakkab texnologik jarayonni ifodalovchi sanoat korxonalarida aylanma suv ta’minoti uchun suvni tozalashning mavjud usullari bo’yicha ilmiy adabiyotlarning tahlili keltirilgan, aylanma suv ta’minoti uchun suvni tozalashning ion almashinuv usulining tanlanishi asoslangan, bunday qurilmalarni modellashtirish usullari ko’rib chiqilgan. Analitik tahlil asosida suv yumshatish qurilmasini ion almashinuvi usuli bilan takomillashtirish va ion almashinuvining kinetik va muvozanat qonuniyatlarini hisobga olgan holda yumshatish jarayonining matematik modelini ishlab chiqishdan

iborat bo'lgan dissertatsiya tadqiqotining aniq maqsadi shakllantirilgan va tadqiqot vazifalari belgilab olingan.

Dissertatsiyaning «**Ikki qismli apparatda ion almashinuvi jarayonining matematik modeli**» deb nomlangan **ikkinchi** bobida ikki qismli natriy-kationit filtrida suvni yumshatish bosqichining matematik modeli ishlab chiqilgan va uni hal qilish algoritmi ishlab chiqilgan. Qabul qilingan taxminlarni hisobga olgan holda ion almashinish jarayonining matematik tavsifi moddiy muvozanatni, sferik shakldagi zarrachaga diffuziya kinetikasini, chiziqli bo'lmagan izotermni va moddaning qattiq fazadagi lokal konsentratsiyasining uning o'rtacha qiymati bilan o'zaro bog'liqligini aks ettiruvchi tenglamalarni o'z ichiga oladi. (1)- (4):

$$\varepsilon \frac{\partial C}{\partial \tau} + (1 - \varepsilon) \frac{\partial \bar{C}_{cp}}{\partial \tau} + v \varepsilon \frac{\partial C}{\partial x} = D_n \varepsilon \frac{\partial^2 C}{\partial x^2}, \quad (1)$$

$$\frac{\partial \bar{C}}{\partial \tau} = \bar{D}_{\phi} \left(\frac{\partial^2 \bar{C}}{\partial r^2} + \frac{2}{r} \frac{\partial \bar{C}}{\partial r} \right), \quad (2)$$

$$\bar{C}_p = f(C), \quad (3)$$

$$\bar{C}_{cp}(\tau) = \frac{3}{r_0^3} \int_0^{r_0} r^2 \bar{C}(\tau, r) dr \quad (4)$$

Yuqorida keltirilgan tenglamalardan tashqari matematik tavsif boshlang'ich va chegaraviy shartlarni o'z ichiga oladi:

$$C(\tau, x)|_{x=0} = C_0, \quad (5)$$

$$C(\tau, x)|_{x=H} = C_{BX}, \quad (6)$$

$$\left. \frac{\partial C(\tau, x)}{\partial x} \right|_{x=H} = 0, \quad (7)$$

$$C(\tau, r)|_{r=0} = \bar{C}_0(r), \quad (8)$$

$$\left. \frac{\partial \bar{C}(\tau, r)}{\partial r} \right|_{r=r_0} = \frac{\beta}{\bar{D}_{\phi}} (C - C_{cp}), \quad (9)$$

$$\left. \frac{\partial \bar{C}(\tau, r)}{\partial r} \right|_{r=0} = 0 \quad (10)$$

Biz modelni yechishni boshlang'ich va chegaraviy shartlarni ((5)-(7) tenglamalar) hisobga olgan holda xususiy hosiladagi (1) bir xil bo'lmagan differensial tenglamani yechishdan boshlaymiz:

$$\varepsilon \cdot \frac{\partial}{\partial \tau} C(\tau, x) + (1 - \varepsilon) \cdot \frac{\partial}{\partial \tau} C_{sp}(\tau, x) + v \cdot \varepsilon \cdot \frac{\partial}{\partial x} C(\tau, x) = D_p \cdot \varepsilon \cdot \frac{\partial^2}{\partial x^2} C(\tau, x), \quad (11)$$

$$\left. \begin{array}{l} C(0, x) = C_0 \\ C(\tau, 0) = C_{v,x} \end{array} \right\} \frac{\partial}{\partial x} C(\tau, H) = 0$$

Furye usulidan foydalanib, biz ushbu muammoning yechimini quyidagi shaklda qidiramiz:

$$C(\tau, x) := \sum_{n=1}^{\infty} C_n(\tau) \sin\left(\frac{\pi n x}{H}\right) \quad (12)$$

Funksiya o'zgaruvchi x ga nisbatan Furrye qatoriga bo'linadi deb faraz qilsak, (12) formulani (11) tenglamaga almashtirib, quyidagiga ega bo'lamiz:

$$\varepsilon \left(\sum_{n=1}^{\infty} \left(\frac{d}{d\tau} C_n(\tau) \right) \sin\left(\frac{\pi n x}{H}\right) \right) + (1 - \varepsilon) \left(\frac{\partial}{\partial \tau} C_{sp}(\tau, x) \right) + \nu \varepsilon \left(\frac{\partial}{\partial x} C(\tau, x) \right) = Dp \varepsilon \left(\frac{\partial^2}{\partial x^2} C(\tau, x) \right)$$

Bu tenglamadan kelib chiqadiki:

$$\frac{d}{d\tau} C_n(\tau) + \frac{Def C_n(\tau) \pi^2 n^2}{H^2} = 0 \quad (13)$$

Quyidagi qiymatni aniqlaymiz: $C_n(\tau) = Cle^{-\frac{Def \pi^2 n^2 \tau}{H^2}}$

$\tau = 0$ bo'lganda $C_n(\tau)$ uchun dastlabki shartlarga asoslanib (5)-(6)-(7) $C_n(\tau) = 0$ uchun dastlabki shartlar olinadi. Bu yerdan (13) tenglamaning boshlang'ich shartlarini qoniqtiradigan tenglamani olishimiz mumkin:

$$C_n(\tau) := \int_0^{\tau} te^{-\frac{Def \pi^2 n^2 (t-1)}{H^2}} dt$$

Olingan natijani (12) formulaga almashtirib, (11) tenglamaning boshlang'ich va chegaraviy shartlarining yechimlarini quyidagi shaklda aniqlaymiz:

$$C(\tau, x) := \sum_{n=1}^{\infty} \left(\int_0^{\tau} te^{-\frac{Def \pi^2 n^2 (t-1)}{H^2}} dt \right) \sin\left(\frac{\pi n x}{H}\right) \quad (14)$$

Agar bir vaqtning o'zida boshlang'ich shartlar nolga teng bo'lmasa, u holda (14) tenglamani yechishda bir jinsli tenglamaning $S(\tau)|_{x=0} = \varphi(x)$ boshlang'ich va chegaraviy shartlarining yechimini qoniqtiradigan shartlarni qo'shish kerak.

Olingan natijani quyidagi Grin funksiyasi sifatida ko'rish mumkin bo'ladi:

$$C(\tau, x) := \int_0^t \int_0^H G(x, \xi, t, \tau) d\xi d\tau$$

U holda (14) tenglama quyidagi shakldagi funksiyaga o'zgaradi:

$$G(x, \xi, \tau, t) := \sum_{n=1}^{\infty} \frac{2e^{-\frac{Def \pi^2 n^2 (\tau-1)}{H^2}} \sin\left(\frac{\pi n \xi}{H}\right) \sin\left(\frac{\pi n x}{H}\right)}{H}$$

Shunday qilib, boshlang'ich va chegaraviy shartlarni hisobga olgan holda (11) tenglamaning yechimi quyidagi shaklga ega bo'ladi:

$$C(\tau, x) := \sum_{n=1}^{\infty} \frac{2H^2 \sin\left(\frac{\pi n x}{H}\right) e^{-\frac{Def \pi^2 n^2 \tau}{H^2}}}{Def \pi^3 n^3} - \left(\sum_{n=1}^{\infty} \frac{2(-1)^{2+n} H^2 \sin\left(\frac{\pi n x}{H}\right) e^{-\frac{Def \pi^2 n^2 \tau}{H^2}}}{Def \pi^3 n^3} \right) - \left(\sum_{n=1}^{\infty} \frac{2H^2 \sin\left(\frac{\pi n x}{H}\right)}{Def \pi^3 n^3} + \sum_{n=1}^{\infty} \frac{2(-1)^{2+n} H^2 \sin\left(\frac{\pi n x}{H}\right)}{Def \pi^3 n^3} \right)$$

Boshlang'ich va chegaraviy shartlarni hisobga olgan holda (2) kinetik bir xil bo'lmagan differensial diffuziya tenglamasining yechimini ko'rib chiqamiz (8)-(10):

$$\frac{\partial}{\partial \tau} Ct(\tau, r) = Def \left(\frac{\partial^2}{\partial \tau^2} Ct(\tau, r) + \frac{2}{r} \frac{\partial}{\partial r} Ct(\tau, r) \right),$$

$$Ct(0, r) = Ct[0](r),$$

$$\frac{\partial}{\partial r} Ct(\tau, r0) = \frac{\beta}{Def} (C - Cgr)$$

$$\frac{\partial}{\partial r} Ct(\tau, 0) = 0.$$

Furye usulidan foydalanib, ushbu masalaning yechimini quyidagi ifoda orqali ifodalash mumkin:

$$G(r, ri, \tau, t) := \sum_{n=1}^{\infty} \frac{2e^{\frac{Def\pi^2 n^2 (\tau-1)}{H^2}} \sin\left(\frac{\pi r r_i}{H}\right)}{H}$$

Bunday holda, boshlang'ich va chegaraviy shartlarni hisobga olgan holda (2) tenglamaning yechimi (8)-(10) sifatida ifodalanishi mumkin:

$$Ct(\tau, r) := \sum_{n=1}^{\infty} \frac{\mu \sin\left(\frac{1}{7}r\right) \pi H^2 (2r + (-1)^{n+1}r - H + H(-1)^n) \left(e^{\frac{Def\pi^2 n^2 \tau}{H^2}} - 1\right) e^{-a\tau} \sin\left(\frac{\pi nr}{H}\right)}{Def\pi^3 n^3}$$

Tenglamaning ikkinchi komponenti (1) interfaza uzatilishiga qarab oqim miqdorini aniqlaydi. Kinetik tenglamani boshlang'ich va chegaraviy shartlarini hisobga olgan holda yechish va natijani (4) tenglama yordamida birlashtirish bizga oqim miqdorini aniqlashga imkon beradi. Maqsadli komponent konsentratsiyasining notekis taqsimlanishi sharti bilan sferik jismlarning issiqlik o'tkazuvchanligini aniqlash muammosining o'xshashligi hal qilinayotgan masala bilan bizga quyidagi shaklda yechim olish imkonini beradi:

$$C(\tau) := \sum_{n=1}^{\infty} \frac{(-\frac{1}{n^3} (25801.22755e^{-0.25000000000\tau} \sin(0.1428571429r)\tau(-1.r + r \cos(3.141592654n)) + 100. - 100. \cos(3.141592654n)) (e^{0.00002467401100n^2\tau} - 1.) \sin(0.01570796327nr))}{n^3}$$

Shunday qilib, suvni yumshatishda ion almashinuv jarayonini taxminan tavsiflovchi tenglamalar sistemasining yechimi quyidagi sistemaga aylanadi:

$$\left\{ \begin{array}{l} \bar{C}_{i,j} = mC_{i,j} + u \\ C(\tau, x) := \sum_{n=1}^{\infty} \frac{2H^2 \sin\left(\frac{\pi mx}{H}\right) e^{\frac{Def\pi^2 n^2 \tau}{H^2}}}{Def\pi^3 n^3} - \left(\sum_{n=1}^{\infty} \frac{2(-1)^{2+n} H^2 \sin\left(\frac{\pi mx}{H}\right) e^{\frac{Def\pi^2 n^2 \tau}{H^2}}}{Def\pi^3 n^3} \right) - \left(\sum_{n=1}^{\infty} \frac{2H^2 \sin\left(\frac{\pi mx}{H}\right)}{Def\pi^3 n^3} + \sum_{n=1}^{\infty} \frac{2(-1)^{2+n} H^2 \sin\left(\frac{\pi mx}{H}\right)}{Def\pi^3 n^3} \right) \\ Ct(\tau, r) := \sum_{n=1}^{\infty} \frac{\mu \sin\left(\frac{1}{7}r\right) \pi H^2 (2r + (-1)^{n+1}r - H + H(-1)^n) \left(e^{\frac{Def\pi^2 n^2 \tau}{H^2}} - 1\right) e^{-a\tau} \sin\left(\frac{\pi nr}{H}\right)}{Def\pi^3 n^3} \\ C(\tau) := \sum_{n=1}^{\infty} \frac{(-\frac{1}{n^3} (25801.22755e^{-0.25000000000\tau} \sin(0.1428571429r)\tau(-1.r + r \cos(3.141592654n)) + 100. - 100. \cos(3.141592654n)) (e^{0.00002467401100n^2\tau} - 1.) \sin(0.01570796327nr))}{n^3} \end{array} \right.$$


Ushbu sistemani yechish uchun cheklangan elementlar usuli – PDE Toolboxdan foydalanildi.

Modelni yechish uchun qurilgan algoritm asosida KU-2-8(Na) kationitda CaCl₂ ionlarining sorbsiyasi bo'yicha hisob-kitoblar amalga oshirildi. 1-rasmda

eksperimental va hisoblangan ma'lumotlarni taqqoslash bo'yicha natijalar ko'rsatilgan.

Eksperiment orqali aniqlangan nuqtalarning natijalarini va hisoblash usuli bilan olingan egri chiziqni taqqoslash shuni ko'rsatadiki, hisoblangan ma'lumotlar eksperimental ma'lumotlarni qoniqarli tarzda tasdiqlaydi.

Shunday qilib, mikroq'ovak tuzilishga ega zarrachalar bilan bir jinsli muhitda ionlarning konvektiv diffuziya va adsorbsion massa uzatish jarayonini tavsiflovchi matematik model ishlab chiqilgan bo'lib, bu komponentlar konsentratsiyasining taqsimlanishini aniqroq hisoblash imkonini beradi.



1-rasm. Ca²⁺ sorbsiyasining egri chiziqlari eksperimental va hisoblangan qiymatlarini taqqoslash

1,2 – C_{kir}=0,2n da hisobiy va tajribaviy qiymatlar;

3,4 - C_{kir}=0,09n da hisobiy va tajribaviy qiymatlar;

So'ng sorbentni qayta tiklash jarayonining matematik tavsifi quyidagi taxminlar asosida tuzildi:

ion almashinuvi jarayonining tezligi tashqi va ichki diffuziya bilan cheklandi; suyuq fazaning apparatdagi bir o'lchovli oqimi faqat x koordinatasiga bog'liq; eritma konsentratsiyasining o'zgarishi suyuq fazaning o'rtacha harakat tezligining funksiyasidir, faqat ionit va eritma orasidagi bo'ylama aralashtirish va massa uzatish jarayoni, uning muvozanati chiziqli Genri izoterma tenglamasi bilan tavsiflanadi;

Yuqoridagi taxminlarni hisobga olgan holda sorbentni qayta tiklash jarayonining matematik tavsifi quyidagicha:

moddiy balans tenglamasi:

$$\varepsilon \frac{\partial C}{\partial \tau} + (1 - \varepsilon) \frac{\partial \bar{C}_p}{\partial \tau} + v \varepsilon \frac{\partial C}{\partial x} = D_n \varepsilon \frac{\partial^2 C}{\partial x^2},$$

sferik zarrachadagi diffuziya kinetikasini aks ettiruvchi tenglama:

$$\frac{\partial \bar{C}}{\partial \tau} = \bar{D}_{\phi} \left(\frac{\partial^2 \bar{C}}{\partial r^2} + \frac{2}{r} \frac{\partial \bar{C}}{\partial r} \right),$$

chiziqli bo'lmagan Genri izotermasining tenglamalari:

$$\bar{C}_p = \Gamma C,$$

qattiq fazadagi moddaning lokal konsentratsiyasining uning o‘rtacha qiymati bilan bog‘liqligini aks ettiruvchi tenglama:

$$\bar{C}_{cp}(\tau) = \frac{3}{r_0^3} \int_0^{r_0} r^2 \bar{C}(\tau, r) dr$$

Matematik tavsif boshlang‘ich va chegaraviy shartlarni o‘z ichiga oladi:

$$C(\tau, x)|_{\tau=0} = C_0, \quad C(\tau, x)|_{x=0} = C_{BX}$$

$$\left. \frac{\partial C(\tau, x)}{\partial x} \right|_{x=H} = 0, \quad C(\tau, r)|_{\tau=0} = \bar{C}_0(r)$$

$$\left. \frac{\partial \bar{C}(\tau, r)}{\partial r} \right|_{r=r_0} = \frac{\beta}{D_{\phi}} (C - C_{cp}), \quad \left. \frac{\partial \bar{C}(\tau, r)}{\partial r} \right|_{r=0} = 0;$$

Ushbu matematik tavsifni yechish uchun, sorbsiya jarayonida bo‘lgani kabi, qurilmaning butun balandligi bo‘ylab ionit qatlami har birining balandligi $h = H/\eta$ bo‘lgan elementar qatlamlarga bo‘linadi.


Texnologik jarayonning vaqti ketma-ket bog‘langan vaqt oralig‘iga o‘xshaydi. Tegishli o‘zgarishlardan so‘ng, ushbu modelni hal qilish uchun cheklangan elementlar usuli – PDE Toolbox ishlatilgan. 1-jadvalda yuqoridagi modelga muvofiq hisoblangan qiymatlar va kationit regeneratsiyasi bo‘yicha eksperimental ma‘lumotlar ko‘rsatilgan. Tajribaviy qiymatlarning hisoblangan qiymatlardan o‘rtacha kvadratik og‘ishi 16% dan oshmaydi.

1-jadval

Ishlab chiqilgan kationit regeneratsiyasi qiymatlari modelga muvofiq hisoblangan va eksperimental ma‘lumotlar

Na ⁺ - Ca ²⁺ almashinuvi			Na ⁺ - Mg ²⁺ almashinuvi		
Vaqt τ , s	C/C _{kir}		Vaqt τ , s	C/C _{kir}	
	eksperiment	hisoblangan		eksperiment	hisoblangan
1	2	3	4	5	6
240	0,680	0,678	180	0,698	0,721
300	0,633	0,629	240	0,679	0,701
360	0,574	0,567	300	0,644	0,679
...
660	0,271	0,268	600	0,467	0,488
720	0,198	0,189	660	0,413	0,449
780	0,143	0,147	720	0,387	0,407
...
1020	0,084	0,098	960	0,238	0,252
1080	0,081	0,089	1020	0,211	0,233
1140	0,078	0,081	1080	0,192	0,200
1320	-	0,007	1260	0,075	0,081
-	-	-	1320	0,009	0,012

Bobning so'ngida sxemasi 2-rasmda ko'rsatilgan suvni yumshatish qurilmasida "sorbsiya-regeneratsiya" to'liq siklini modellashtirish va hisoblash keltirilgan.



2-rasm. Suvni yumshatishning to'liq sikli sxemasi
DTF – dastlabki tozalash filtri; KF₁-KF₂ –ikki kamerali filtr

Ionit qatlamli suvni yumshatish qurilmasida "sorbsiya-regeneratsiya" to'liq siklining matematik tavsifi quyidagi tenglamalardan iborat:

$$\varepsilon \frac{\partial C}{\partial \tau} + (1 - \varepsilon) \frac{\partial \bar{C}_{cp}}{\partial \tau} + v\varepsilon \frac{\partial C}{\partial x} = D_{\pi} \varepsilon \frac{\partial^2 C}{\partial x^2}, \quad (15)$$

$$\frac{\partial \bar{C}}{\partial \tau} + \bar{D}_{ef} \left(\frac{\partial^2 \bar{C}}{\partial r^2} + \frac{2}{r} \frac{\partial \bar{C}}{\partial r} \right), \quad (16)$$

$$\bar{C}_p = f(C), \quad (17)$$

$$\bar{C}_{cp}(\tau) = \frac{3}{r_0^3} \int_0^{r_0} r^2 \bar{C}(\tau, r) dr, \quad (18)$$

shunga ko'ra, moddiy muvozanat, diffuziya kinetikasi, chiziqli bo'lmagan izoterma va lokal konsentratsiya $\bar{C}(\tau, r)$ ning o'rtacha komponenti $\bar{C}_{cp}(\tau)$ bilan bog'liqligini aks ettiruvchi birikma tenglamasi. Shuningdek, sistema boshlang'ich va chegara shartlarini ham o'z ichiga oladi:

$$C(\tau, x) \Big|_{\tau=0} = C_0(x), \quad (19)$$

$$C(\tau, x) \Big|_{x=0} = C_{BX}, \quad (20)$$

$$\frac{\partial C(\tau, x)}{\partial x} \Big|_{x=H} = 0, \quad (21)$$

$$\bar{C}(\tau, r) \Big|_{\tau=0} = \bar{C}_0(r), \quad (22)$$

$$\frac{\partial \bar{C}(\tau, r)}{\partial r} \Big|_{r=r_0} = \frac{\beta}{D_{ef}} (S - S_{gr}), \quad (23)$$

$$\left. \frac{\partial \bar{C}(\tau, r)}{\partial r} \right|_{r=0} = 0 \quad (24)$$

(15) – (24) tenglamalar sistemasini ishlab chiqilgan metodikaga muvofiq yechamiz. Buning uchun biz Nikolskiy izotermasining nohiziq tenglamasidan foydalanamiz:

$$\bar{S} = a_0 \frac{kS}{1 + kS}.$$

Ionit qatlamining balandligi H uzatish birliklari soni m_L bilan belgilanadi, chunki uzatish birliklari qancha ko‘p bo‘lsa, ionlarni suvdan o‘tkazish uchun shuncha ko‘p ionit qatlami kerak bo‘ladi. Uzatish birliklari soni qancha ko‘p bo‘lsa, kiruvchi ionlardan xalos bo‘lish jarayoni shunchalik samarali bo‘ladi. Uzatish birliklari soni suyuq fazada uzatish birligi balandligining o‘zgarishini ko‘rsatadi. Keyinchalik, biz ionit qatlamini balandligi bo‘yicha har birining balandligi $h = H/\eta$ bo‘lgan elementar qatlamlarga ajratamiz. Texnologik jarayonning vaqti ketma-ket bog‘langan vaqt oralig‘i shaklida ifodalanadi va eritmaning konsentratsiyasi C_{ij} shaklida qayd etiladi, bu yerda indeks i ionit qatlamining sonini, j esa vaqt oralig‘ini ko‘rsatadi. Biz funksiyani $\bar{C}_0(x)$ funksiyalari bo‘yicha η bilan almashtirish imkoniyatini tan olamiz. Funksiyalarni almashtirish bajarilgan boshlang‘ich shartni (19) tenglama bilan almashtirish imkonini beradi.

$$C(\tau, x) \Big|_{\tau=0} = C_{0,i} = \text{const},$$

va diffuziya tenglamasi uchun (22) tenglama bu tenglamada:

$$\bar{C}(\tau, r) \Big|_{\tau=0} = \bar{C}_{0,i}(r).$$

Kiritilgan o‘zgartirishlar ion almashinuvi jarayonining muvozanatsiz dinamikasini hisoblash yechimini adsorbsion qurilmadagi maqsadli komponent konsentratsiyasining ikkala fazada ham notekis taqsimlanishi konsentratsiyani bir xil boshlang‘ich taqsimot bilan adsorbsion qurilmadagi eritma konsentratsiyasining fazo-vaqt bo‘yicha taqsimlanishini hisoblash yechimi haqida ma’lumot olish imkonini beradi.

Tegishli almashtirishlar va o‘zgartirishlardan so‘ng, biz belgilangan balandlikning i -ionit qatlami va j -vaqt oralig‘i uchun $C^C(x, \tau)$ funksiyasini hisoblash formulasini olamiz:

$$\frac{C^S(\tau, X)}{S_{VX}} = 1 - \frac{e^{-\frac{V^2}{2Dp}(\frac{\tau}{2} - \frac{X}{V})}}{S_{VX}} \left\{ \bar{K}_j \sum_{k=1}^{\infty} \frac{\sin(\lambda_k \frac{X}{h}) e^{\frac{v^2}{4Dp}\tau}}{d_k R_k^2} + \sum_{k=1}^{\infty} \frac{\sin(\lambda_k \frac{X}{h}) e^{-\frac{Dp}{h^2} \lambda_k^2 \tau} \left[\left(\frac{S_{VX} - S_0}{S_{VX}} \right) \lambda_k^2 R_k - \bar{K}_j \lambda_k^3 \right]}{d_k R_k^2} \right\}.$$

Olingan yechimlar integratsiyasi sorbent qatlami bo‘lgan qurilmada komponentlar konsentratsiyasining tarqalish dinamikasi haqida tasavvur beradi.


Dissertatsiyaning «**Issiqlik qurilmalari devorlaridagi qatlamlarning mineral tarkibini eksperimental tarzda aniqlash va suvni yumshatishning ion almashinuvi usuli bilan qatlamlarning oldini olish**» deb nomlangan uchinchi

bobida, Respublikaning Toshkent, Qashqadaryo va Navoiy viloyatlari korxonalarining qozon qurilmalari va quvurlarining ichki yuzalaridagi choʻkindi qatlamlar tarkibi oʻrganildi. Shu maqsadda metall quvurlar va issiqlik almashinuv qurilmalari ochilgandan keyin ularning ichki yuzasidan namunalar olindi. Namuna olish uni olish joyi, quvur yoki issiqlik almashinuv qurilmasining materiali, issiqlik texnikasi uskunasi ishlashining texnologik parametrlari (uskunaning taʼmirlash muddati, harorat rejimi, maksimal va minimal harorat qiymatlari, quvurlar va issiqlik almashinuvchilardagi bosim, shuningdek, qurilmalarning texnologik parametrlari) bilan birga olib borildi. Sanoat korxonasi tomonidan ishlatiladigan suvning tarkibi yumshatishdan oldin va keyin oʻrganildi.

Texnologik jarayonlarda hosil boʻlgan qatlamlarda turli xil kimyoviy birikmalar va minerallarning tarqalishini, kimyoviy tarkibi, kristall tuzilishi va qatlamlarning morfologiyasini aniqlash uchun rentgen diffraktometriyasi (XRD) usullari qoʻllanildi. Rentgen diffraktometriyasi (XRD) - qatlamlarda turli minerallarning tarqalishini oʻlchash uchun rentgen nurlaridan foydalanadigan usul hisoblanadi. Qatlamlar namunasi detektorga joylashtiriladi va rentgen nurlari namunadan oʻtib, minerallarning tarkibini aniqlash uchun tahlil qilinishi mumkin boʻlgan difraksiya tasvirini yaratadi.

Fazalarning miqdoriy tarkibi Crystallographica Search-Match amaliy dasturiy taʼminot toʻplami yordamida aniqlandi.

Turli korxonalardan olingan suv namunalarining tarkibi standart usullar asosida aniqlandi. Soʻng issiqlik almashinuvchilari va aylanma suv quvurlari yuzalaridagi choʻkindi qatlamlarning kimyoviy tarkibi aniqlandi. Issiqlik almashinuvchilar va aylanma suv quvurlari yuzalaridagi choʻkindi qatlamlar odatda suvdagi turli xil mineral tuzlardan iborat boʻladi. Choʻkindi qatlamning tarkibi tizimning joylashuvi va ishlash holatiga qarab farq qilishi mumkin. Masalan, agar suvda yuqori konsentratsiyali kalsiy va magniy boʻlsa, unda choʻkindi qatlamlarda karbonat, sulfat va xlorid kabi elementlarning birikmalari boʻlishi mumkin. Agar suvda yuqori konsentratsiyali temir va marganets boʻlsa, unda choʻkindi qatlamlarda oksid, gidroksid va karbonat kabi elementlarning birikmalari boʻlishi mumkin.



3-rasm. Ikki kamerali suvni tuzsizlantirish qurilmasining texnologik sxemasi
1,2 – tindirgich filtrlari; 3,4 va 5,6 –H-kationit va OH-anionit filtrlari; 7,8 i
9,10 – regeneratsiya va chiqindi eritmalar uchun baklar;
11-13 - nasoslar

Qatlamlar hosil bo'lishining oldini olish uchun ion almashinuv usuli bilan suvni yumshatish uchun tajriba asosida tadqiqotlar o'tkazildi.

Tavsiya etilayotgan ion almashinuvi filtrida suvni tozalash ikki bosqichdan iborat bo'lgan, uyg'unlashgan sxema bo'yicha amalga oshiriladi. Tozalangan suv nasos (11) orqali ichiga kvarts qumi solingan tindirish filtriga (1) kiradi. Ushbu siklda tindirish filtri (2) yuvish bosqichida bo'lib turadi. Tozalanayotgan suv suvdan Ca^{2+} , Mg^{2+} va Na^+ kationlarini olib tashlash uchun mo'ljallangan ikki kamerali H-kationit filtriga yuboriladi. Filtrlash jarayonida tindirilgan suv birinchi kameraga tarqatib beruvchi moslama orqali kirib, qattiqlik o'zgartiruvchi kuchsiz kislotali kationit qatlami orqali yuqoridan pastga o'tadi, so'ngra suv teskari yo'nalishda oraliq pastki qism orqali ko'tarilib, H^+ kationiga to'yinguniga qadar ishlaydigan kuchli kislotali kationit bilan to'ldirilgan ikkinchi kameraga kiradi. Kation almashinuv filtrlarining har biri kirish joyida konsentratsiya hisoblagichi va chiqishda vodorod konsentratsiyasi datchiki bilan jihozlangan. Oqava suvdagi vodorod konsentratsiyasi 100 mg/l dan oshganda, filtr avtomatik ravishda regeneratsiya uchun to'xtaydi. Suv sifatini nazorat qilish uchun namuna olish joyi o'rnatilgan. Shu bilan birga, ikki kamerali H-kationit filtri (4) regeneratsiya jarayonida bo'lib turadi.

(3),(4) filtrlardan keyin suv kuchli kislotali anionlarni, shuningdek kremniy kislotasi $HSiO_3^-$ va karbonat kislotasi HCO_3^- anionlaridan tozalaydigan, ikki kamerali OH-anionit filtriga (5) yuboriladi. Ion almashinadigan material sifatida birinchi kameraga kuchsiz asosli anionit D301, ikkinchi kameraga esa kuchli asosli 201x7 anioniti yuklanadi. Har bir anion almashinuv filtri kirish joyida hisoblagich, chiqishda kremniy konsentratsiyasini o'lchagich va elektr o'tkazuvchanlikni o'lchagich bilan jihozlangan. Chiqish suvlarida kremniy konsentratsiyasi 0,1 mg/l dan va elektr o'tkazuvchanligi 5 $\mu S/smdan$ oshganda filtr avtomatik ravishda regeneratsiya uchun to'xtaydi. Anionlangan suvni nazorat qilish uchun namuna olish punkti tayinlangan. Ikki kamerali OH-anionit filtri (6) regeneratsiya bosqichida bo'ladi.

Kationit turiga va filtrning ishlash sharoitlariga qarab kationit filtrni qayta tiklash uchun turli xil reaktivlardan foydalanish mumkin.

2-jadval

Ikki kamerali ion almashinuv qurilmasida tabiiy suvning yumshatishdan avvalgi va keyingi qiyosiy tasnifi

Kation tarkibi, mg-ekv/dm ³	Ca	Mg	Na	K	Fe
Ko'rsatkichlar qiymati	0,26	0,21	5.6	0,031	0,001
Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	Suv tayyorlash			
		avval		Keyin	
Xloridlar	mg-ekv/dm ³	32,9		32,9	
Ishqoriyligi	mg-ekv/dm ³	6,4		6,8	
Qattiqligi	mg-ekv/dm ³	7,7		0,4	
pH ko'rsatkichi		6,4		6,9	

2-jadvalda tavsiya etilgan filtrda Damxo‘ja suv omboridan olingan suvni tozalash natijalari ko‘rsatilgan.

Ikki kamerali apparatning ishlash parametrlari 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval

Ishlab chiqilgan suvni tuzsizlantirish qurilmasining ishlash parametrlari

Ko‘rsatkichlar	Belgilanishi	O‘lchov birligi	Sonli qiymati
Qurilmaning diametri	D	m	1,5
Ionitning balandligi	H	m	1,5
Suvning hajmiy sarfi	Q	m ³ /soat	100
Suvning qattiqligi	C _q	mg-ekv/l	7
Qurilmadagi kationitning miqdori	V	m ³	2,6
«To‘yinish»gacha qurilmaning ishlashi	τ	soat	6
Regeneretsiya uchun eritma			Sulfat kislotasi
Eritmaning konsentratsiyasi	S _p	mg-ekv/l	0,93
Sulfat kislotasini berish tezligi	W _p	m ³ /soat	10
Regeneratsiya jarayonining vaqti	τ _p	min	172

Shunday qilib, tabiiy suvni tozalashning tavsiya etilgan sxemasi ishonchli va barqaror ishlaydi. Ushbu qurilmalar issiqlik va massa almashinuv qurilmalarini kimyoviy tozalash uchun zarur bo‘lgan unumdorlikni sezilarli darajada oshirish imkoniyatini beradi.

XULOSA

1. Ikki qisimli natriy kationit filtrida suvni yumshatish bosqichining matematik modeli ishlab chiqilgan bo‘lib, u ionit qatlami orqali suyuqlikning kirib borishining gidrodinamik xususiyatlarini hisobga olgan holda ion almashinuvining ham kinetik, ham muvozanat shakllarini hisobga olishga imkon beradi.

2. Modeli ishlab chiqildi va ikki qisimli kationit filtrida “sorbsiya-regeneratsiya” to‘liq siklini hisoblash amalga oshirildi, bu esa filtrning sorbsiya va regeneratsiya bosqichlarida optimal ish vaqtini hisoblash, regeneratsiya eritmasining optimal konsentratsiyasini tanlash, filtdan o‘tadigan qattiqlik ionlarining momentini taxmin qilinish imkonini beradi.

3. Qurilgan model va uni yechish algoritmi ion almashinuv qurilmasida ionitning sorbsiya jarayonini bashorat qilish uchun ishlatilishi mumkin, bu esa ishni o‘z vaqtida boshqa qismga o‘tkazishda qattiqlik ionlarning filtdan o‘tgan momentini taxmin qilish, shuningdek kationit resursini (almashtirish zaruratigacha

bo‘lgan vaqt) bashoratlash va uning eskirishiga ta’sir etuvchi omillarni hisobga olish imkonini beradi.

4. Issiqlik uskunalari devorlaridagi cho‘kindi qatlamlarning mineral tarkibi tajribaviy tarzda aniqlash o‘tkazildi, bu esa cho‘kindilarning paydo bo‘lish sabablarini tushunish, uskunaning ishlashini optimallashtirish va issiqlik uskunalari tozalashda eng samarali usulni tanlash imkonini beradi.

5. Turli sanoat korxonalarining qozon va issiqlik uskunalari aniqlangan cho‘kindi qatlamlarning elementar tarkibi aniqlandi. Bu cho‘kindilarda qaysi mineral birikmalar ustunligini aniqlash imkonini beradi.

6. Turli sanoat korxonalarining issiqlik almashinuvchilari va aylanma suv ta’minoti quvurlari yuzalaridagi cho‘kindi qatlamlarning kimyoviy tarkibi aniqlandi, bu muammoning manbasini ko‘rsatadi - masalan, suvda kalsiy va magniy konsentratsiyasining ortishi (qattiqligi), temir, tuzlar, organik moddalar va boshqalarning mavjudligi.

7. Suvni sifatli yumshatishni ta’minlovchi ikki kamerali ion almashinuv filtri qurilmasi ishlab chiqildi va yaratildi, bu esa aylanma suv ta’minoti tizimidagi uskunalarining samaradorligi va ishonchliligini oshiradi.

8. “ELEKTRKIMYOZAVOD” qo‘shma korxonasida iqtisodiy samaradorligi yiliga 388 mln 977 ming so‘m bo‘lgan dissertatsiya ishining natijalari tatbiq etildi.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ НА ОСНОВЕ НАУЧНОГО СОВЕТА
DSc.03/30.12.2019.Т.03.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ ТЕХНИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ТЕХНИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

ЮНУСОВА НИЛУФАР АБДУСАМИ КИЗИ

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УСТАНОВКИ ВОДОПОДГОТОВКИ ДЛЯ
ПРОМЫШЛЕННЫХ ТЕПЛООБМЕННЫХ АППАРАТОВ**

**02.00.16 – Процессы и оборудование для химической технологии и производства
пищевых продуктов (технические науки)**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент-2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за B2023.1.PhD/T1632.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном техническом университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице (www.tdtu.uz) и информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель: **Мухитдинов Джалолитдин Пахритдинович**
доктор технических наук, профессор

Официальные оппоненты: **Нурмухамедов Хабибулло Саъдуллаевич**
доктор технических наук, профессор

Самандаров Достон Ишмухаммат угли
доктор философии по техническим наукам (PhD)

Ведущая организация: **Навоийский государственный горно-технологический университет**

Защита диссертации состоится «__»_____2024 г. в __ часов на заседании Научного совета Dsc.03/30.12.2019.T.03.02 при Ташкентском государственном техническом университете. (Адрес: 100095, г.Ташкент, ул. Университетская кўчаси, 2. Тел.: (99871) 246-46-00; факс: (99871) 227-10-32; e-mail: tstu_info@tdtu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного технического университета (регистрационный номер - ____). (Адрес: 100095, г.Ташкент, ул. Университетская кўчаси, 2. Тел.: (99871)207-14-70).

Автореферат диссертации разослан «__»_____2024 года.

(протокол реестра №__ от «__»_____2024 года).

Н.Р.Юсупбеков

Председатель научного совета
по присуждению ученых степеней,
д.т.н., профессор, академик АН РУз

У.Ф. Мамиров

Ученый секретарь научного совета
по присуждению ученых степеней,
д.т.н, профессор

Ш.М.Гулямов

Председатель научного семинара при научном совете
по присуждению учёных степеней,
д.т.н., профессор

Введение (аннотация к диссертации доктора философии (Phd))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире много внимания уделяется научным разработкам, связанным с умягчением и обессоливанием воды, используемых в системе оборотного водоснабжения. Упаривание воды с высокой жесткостью в системе оборотного водоснабжения и его постоянная подпитка приводит к образованию трудноудаляемых из труб и оборудования прочных карбонатных отложений. Накипь имеет высокие механические свойства и достаточно низкую теплопроводность, что приводит к увеличению расхода тепловой энергии и затрат на эксплуатацию теплотехнического оборудования.

В мире в настоящее время ведутся исследования в различных направлениях, связанных с проблемой необоснованного перерасхода топлива и энергии, вызванного неэффективной работой технологического теплообменного оборудования: разработка эффективных методов и технологий теплообмена, применение высокоэффективных материалов, применение современных методов компьютерного моделирования. В связи с этим необоснованный перерасход энергии является важной и актуальной проблемой, с которой сталкиваются в различных отраслях промышленности, включая энергетику, химию и др., В результате чего происходит негативное воздействие на предприятия и государственные бюджеты в целом, поскольку ведет к увеличению затрат производства и потребления.

В Республике в системе оборотного водоснабжения промышленных предприятий особое внимание уделяется продлению срока службы теплотехнических устройств, что напрямую связано с образованием слоев отложений, затрудняющих процесс теплообмена и приводящих к преждевременному выходу из строя теплообменного оборудования. В Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы определены задачи «снижения потерь в отраслях промышленности и повышения эффективности использования ресурсов, внедрения современных энергосберегающих технологий, ... финансирования проектов по повышению энергоэффективности»¹. Для выполнения этих задач, в том числе создания устройства умягчения и опреснения воды для повышения эффективности теплообменного оборудования, повышения его эффективности и внедрения на практике, является одной из актуальных задач.

